

ALISHER NAVOIY FARDLARIDA BADIY SAN'ATLAR

UrDU magisrtanti Z.EGAMBERDIYEVA

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Alisher Navoiy fardlarida bayon etilgan badiiy san'atlar tahlil qilingan. Fardlarning didaktik tabiati, tasavvufiy ma'no qamrovi va poetik san'atlarning ularni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos o'rni xususida baxs yuritilgan

KALIT SO'ZLAR: adabiy did, bayt, fardnavis, badiiy san'at, tazod, ruju'

Ma'lumki, adabiyot – so'z san'atining vazifasi, eng avvalo, o'quvchiga estetik zavq berish, unda nafosatni shakllantirish, o'quvchi ruhiyatini tozartirish, adabiy didni shakllantirishdan iborat. Bu, xususan, fard janri namunalarida ko'zga ochiq tashlanadi. Alisher Navoiyning qalamiga mansub barcha asarlar o'zining boy mazmuni va saviyasining yuqoriligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Uning barcha asarlariga teran falsafiy va umumbashariy g'oyalar mahorat bilan singdirilgan. Ayniqsa, bu xususiyat Navoiyning fardlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy bir necha nasriy asarlarida fikrni dalillash, ta'sirni oshirish maqsadida o'zining hayotiy tajribasini va falsafiy didaktik qarashlarini qisqa qilib ikkilik baytlar bilan ifodalab o'tgan. Ushbu ixchamgina baytlarda lo'ndagina tugal fikr ifodalanib, shoirning umri davomida boshidan kechirgan diniy, dunyoviy, falsafiy qarashlarini o'z ichiga oladi. “Uning “ Muhokamat ul-lug'atayn” ,” *Munshaot*”, “Xoloti Sayyid Hasan Ardasher” va “Mezon ul avzon” kabi asarlarining har birida o'ntadan ortiq, “ Mahbub ul qulub” da yetmishga yaqin ” bayt” nomi bilan berilgan ikkiliklar mavjud”.

“Mahbub ul qulub”ning o'n sakkizinchi fasli “Dabiriston ahliga” bag'ishlangan bo'lib, unda maktabdorlar, ustozlar haqidadir. Bu bobda ustoz va shogird munosabatlari, haqiqiy jafokash ustoz va ilmga chanqoq shogird qanday bo'lishi muhokama qilingan va

oxirida Navoiy ushbu fard bilan o'z fikrini dalillab o'tgan:

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado aning haqin yuz ganj ila*

Navoiy fardlaridagi yana bir muhim xususiyat, bu ulardagi mavzu turlarining rang-barangligi va g'oyalarning xilma-xilligidir. Biroq barcha fardnavislar kabi Navoiy fardlarida didaktik mavzudagi fardlar miqdor jihatdan ko'pchilikni tashkil qiladi."Mahbub ul qulub"ning beshinchi bobi Sabr zikrida bo'lib, unda berilgan ushbu fard didaktik mavzudagi fardlardan biri hisoblanadi.

*Ajab ranjeki andin sa'b yo'q ranj,
Vale chekkan kishining bahrasi ganj*

Alisher Navoiy fardlaridagi shakl va mazmunning mutanosibligi, fikriy tugalliligi, mustaqillig, ixchamligi, aforistik xarakteri va didaktik xususiysti uni bir necha guruhlarga ajratishga yordam beradi. Bu bilan boshqa fardnavislar kabi Navoiy ijodida ham fardlar: oddiy fardlar, iqtobos fardlar, tajnisli fardlar kabi guruhlanadi.

Shubhasiz, o'zbek mumtoz adabiyotida fard janrini yangi bosqichga olib chiqqan ulug' shoir Alisher Navoiy. Mumtoz adabiyot nazariyasining ustunlaridan hisoblangan ilmi qofiya, ilmi aruz va ilmi bade'lar bu jarayonda alohida o'rin egallaydi.

Alisher Navoiy fardlarda nafaqat qofiyalanishni nisbatan qat'iylashtirdi balki didaktik, ishqiy-irfoniy, tasavvufiy mazmundagi fardlarning go'zal namunalarini yaratishga erishdi. Har qanday yozma adabiyot namunlari, eng avvalo, xalq og'zaki ijodida oziqlanishi ayon. Jumladan, folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan janri maqollardan Alisher Navoiy ham o'z fardlarida unumli foydalangan.

Bu esa mazmunning qisqa va lo'ndaligini ta'minlab, ta'sirchanligini kuchaytirgan.

*Yuqar yamonlig' angakim, kirar yamon el aro,
Ko'mur aro ilik urg'an qilur ilgini qaro.*

*Dunyovu uqbo ikkisi jam' o'lmas, ey rafiq,
Kimki ikki kema uchini tutar, bo'lur g'ariq.*

Birinchi fardda “Yomonga yaqin yursang balosi yuqar, Qozonga yaqin yursang – qorasi”, ikkinchisida “Ikkita kemani tutgan, suvga g'arq bo'lar” maqollarining go'zal badiiy ifodasi yuzaga chiqqan.

Quyidagi fardda ijodkor fikrini bayon etish asnosida “so'z orasida Qur'oni karimdan èxud Hadisi sharifdan è boshqa maqbul asarlardan bir jumlaning to'liq èki qisman oz tasarruf ila yoxud tasarrufsiz olish” san'atidan foydalangan:

*Belu og'zidin, dedilarkim, degil afsonae,
Boshladim filholkim: «Bir bor edi, bir yo'q edi».*

Yorning og'zi va belini go'zalligini ifoda etishda lirik qahramon o'zbek xalq ertaklarining an'anaviy boshlanmasini mohirona istifoda etgan.

O'zbek mumtoz adabiyotida fikrni go'zal dalillash usullaridan biri tamsil san'atidir. Quyidagi fardda ham shoirning fikr-qarashlari tamsil san'ati vositasida ifoda etilgan:

Yuz ochib, èg'lig' bila la'lingni maktum aylading,
Gul chog'i gulrang maydin bizni mahrum aylading.

Ya'ni ro'mol bilan lablarining yashirding, go'yoki gul chog'i gulrang maydan mahrum aylagan singari kabi mazmunni ifoda etadi.

Yoxud

Qotiq ko'nglungdin oqti xalq yoshi,
Ki yomg'ur boisidur yoda toshi.

Tamsil san'ati bilan ziynatlangan ushbu fardda *yoda* – yada toshi, ya'ni èmg'ir chaqirish qo'llaniladigan sehrli tosh xususida gap borgan. Alisher Navoiy asarlarida yada toshi badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan bo'lib, oshiqning ko'zidan qon yoshi oqizuvchi yorning tosh qalbiga tashbeh qilingan. Buni yuqoridagi fard mazmuni ham tasdiqlaydi.

Fard mazmunining estetik ta'sir kuchini oshirgan poetik san'atlardan yana biri talmeh san'atidir.

Voqif ermas yor, jon bersam buzug' koshonada,
Shah ne ogah, xasta Majnun o'lsa bir vayronada.

Oshiqona ruh bilan yo'g'rilgan mazkur misralarda koshona va vayrona so'zlari tazod san'atini ham hosil qilgan. Demak, birgina fardda talmeh, tamsil va tazod san'atilar o'zaro uyg'unlashib, she'rning badiiy kuchini orttirgan.

Alisher Navoiy fardlarida mulamma' va iqtibos san'atlarining go'zal namunalariga ham duch kelamiz:

Elni xor aylagan tama', bilgil,
Doimo azza man qana' bilgil.

Quyidagi fardda esa “oy” so‘zi vositasida istiora hosil qilinib, qaytarish san’ati ham misralar mazmunni va shaklini o‘zaro mutanosib holga keltirishga xizmat qilgan.

Aqlu xushum qolmadi, ko‘rgach ul oyni bodano‘sh,
Iztirobimdin hamonokim, to‘kuldi aqlu xush

E’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat shundan iboratki, Alisher Navoiy fardlarining badiiyati, xususan, badiiy san’atlarning istifoda etilishini tadqiqi asar mazmunini yanada teranroq anglashga turtki bo‘ladi. Shakl va mazmunning uyg‘unligi asarning yanada jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Alisher Navoiy fardlarida talmeh, tanosub, tashbeh, mulamma’, tazod, ruju’ kabi qator badiiy san’atlar misralarning jozibadorligini orttirib, ta’sirchanligini oshirishga, shakl va mazmunning o‘zaro mutanosibligini ta’minlashga xizmat qilgan. Buyuk mutafakkir shoir fardlarining badiiyatni o‘rganish esa nafaqat fard janri imkoniyatlari, balki Alisher Navoiy dunyoqarashi, she’riyatining mazmun- mohiyati xususida bahs yuritishga ham imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
2. “Алишер Навоий: қомусий луғат” / Масъул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов. – Т.: “Sharq”, 2016. Б. 179.
3. Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти, 2020. 352 бет.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги, Т.: “O,,zbekiston” нашриёти, 2014. – 320 бет
5. Носиров О., Жамолов О. Зиёвиддинов Н. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. 170 б.
6. Ойматова М. А. Ўзбек адабиётида фард жанри поэтикаси ва тарихи / М. А. Ойматова; А.Навоий номидаги тил ва адабиёт ин-ти [дис. ... филология фан. номзоди] : дис филология фан. номзоди . – Ташкент, 1999. – 131 б.
7. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: 1976. – 168 б.
8. Орзибеков Р. Поэтика и пути развития жанров узбекской классической поэзии. Дис д.ф.н. – Самарканд, 1983. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр, МАТ,7-жилд, Тошкент, 1991, 26-бет.
9. Серикова Л. Малые формы лирики Наваи. Автореф. Дисс. Канд. Ф.н. – Ленинград: 1975.
10. Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. – 408 б.
11. Ўзбек адабиётида рубоийлар. – Т.: Фан, 1987